

=====

INTENSIV DANAK MEVALI O'SIMLIKLER UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR

Muqimova Zilolabonu Davronbek qizi

Andijon davlat universiteti, biologiya yo'nalishi talabasi

zilolamuqimova28@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 03.07.2025

Revised: 04.07.2025

Accepted: 05.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

Teshikchali dog'lanish, klyasterosporioz, monilioz, kuydirgi, intensiv bog'.

Mazkur maqolada intensiv usulda yetishtiriladigan danak mevali o'simliklarga xos bo'lgan asosiy kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, tarqalish sharoitlari va o'simliklar salomatligiga ta'siri haqida ma'lumot berilgan. Ayniqsa, bakterial, virusli va zamburug'li kasalliklarning alomatlari, diagnostikasi hamda ularni oldini olish va davolash usullariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy agrotexnik tadbirlar, biologik vositalar va karantin choralarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot intensiv bog'dorchilikda hosildorlik va sifatni saqlab qolishda kasalliklar bilan kurashishning ilmiy asoslangan yondashuvlarini taqdim etadi.

Teshikchali dog'lanish (Klyasterosporioz). Bu kasallik danakli meva daraxtlarini, ayniqsa, o'rikning keng tarqalgan kasalligi hisoblanadi. Kasallik bilan o'simliklarning asosiy yer ustki qismlari: kurtaklari, gullari, gul tugunlari, mevalari, barglari, novda va shoxlari kasallanadi. Kasallik namgarchilik ko'p bo'lib, kunduz kuni iliq bo'lgan vaqtida yaxshi rivojlanadi. Kasallikka uchragan kurtaklar nobud bo'ladi.

Mevalarda kasallik har xil ko'rinishda yuzaga keladi. O'rik mevalari da avvaliga nuqta shaklida juda kichik qizg'ish-qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi. Mevalaming yiriklashishi bilan dog'lar ham sekin-asta kattalashib boradi. Kasallikka uchragan bargning ko'pchiligi yoki bir qismi quriydi va to'kilish ketadi. Bu esa qishlovchi kurtaklarning uyg'onishiga olib kelib, bunday daraxtlar sovuqqa chidamsiz bo'lish bilan birga kelgusi yili esa kam hosil beradi. Agar kasallik kuchayib ketsa, bahorda barglar to'kilishi mumkin, Barg va mevani zararlab

=====

xosildorlikni 30-40 % ga pasaytiradi, meva sifati buziladi. Agar bahorda yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lsa mevani kuchli zararlaydi. Kurash choralari: - tinim davrida fungitsidni sepish bilan birga kasallangan novdalami kesib yo‘q qilish yaxshi samara beradi.

Monilioz (Kuydirgi) Kasalligi. Kasallik bahorda meva daraxtlarining gullari va kurtaklarini nobud qiladi. Urug‘li va danakli meva daraxtlarida meva chirishi juda keng tarqalgandir. Mevaning chirishi qo‘ng‘ir rangli kichkina dog‘dan boshlanadi va tez rivojlanib butun mevani qoplaydi. Natijada meva eti yumshab, qo‘ng‘ir tusga kiradi va mevaning ta’mi o‘zgaradi. Agar meva uni yig‘ish yoki tashish davrida zararlansa, bunday mevalarda yostiqchalar hosil bo‘lmay qorayib yoki ko‘kish rangga kirib mumlanib qoladi. Mumlangan asosiy mevalar erga to‘kilib daraxt tagida qishlaydi. Daraxtlarda ham ko‘pincha mumlangan mevalar tushmasdan qolishi ham mumkin. Zamburug‘ mevaga faqat jarohatlangan joydan kiradi, ayniqsa, bunday jarohatlami olma qurti, qushlar, do‘l yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, zamburug‘ qo‘tir (parsha) ta’sirida yorilgan joydan ham o‘tiradi. Zamburug‘ sporalarining mevada tez rivojlanishi uchun optimal harorat 24-28 darajadir. Keyinchalik zararlangan mevalar mumlanib qolib, zamburug‘ shu mumlangan joylarda qishlab chiqadi.

Kurash choralari: Bu kasallikning oldini olish uchun qishlovchi infeksiyasi bo‘lgan mumlangan mevalami terib yo‘qotish lozim.

Kuzda xazon yig‘ishtirilib ko‘miladi. so‘ngra bog‘ qayta haydaiadi va daraxtlariing atrofi yumshatiladi.

- Daraxt tanasi va yog‘on shoxlarining ko‘chgan po‘stloqlari kuzda, barglar to‘kilgandan keyin va erta bahorda yig‘ib olib yo‘kotiladi.

- Bog‘larga mineral va mahalliy o‘g‘itlar solinadi. Buzoqboshi qo‘ng‘izlar paydo bo‘lmasligi uchun meva daraxtlariga go‘ngni yaxshilab chiritib solish kerak.

- Erta bahorda (dori purkashdan keyin) daraxtlaming zararlangan, yorilgan va ayri joylariga bog‘ zamazkasi suriladi, daraxtlaming tanasi ohak bilan oqlanadi.

- Bog‘larda mavsum boshidan to‘kilgan mevalarni muntazam ravishda terib, darrov xo‘jalik maqsadlari uchun ishlatish yoki yo‘qotish kerak.

Mevali boglarda qo‘llash uchun tavsiya qilingan insektitsidlar:

Danak mevali bog‘ zararkunandalariga qarshi:

- Benzofosfat, 30% em.k. (1,0-3,3 l/ga);
- Zolon, 35% em.k. (0,8-2,8 l/ga);
- Bi-58 (Yangi), 40% em.k. (1,2-2,0 l/ga);
- Nugor, 40% em.k. (1,2-2,0 l/ga);

-
- Danadim, 40% em.k. (1,2-2,0 1/ga);
 - Omayt, 57% em.k. (0,9-1,2 1/ga);
 - Detsis, 2,5% em.k. (0,5 1/ga);
 - Fufanon, 57% em.k. (1,0-3,0).

Mevali bog‘larda qo‘llash uchun tavsiya qilingan fungitsidlar:

Danak mevali bog‘ kasalliklariga qarshi:

- Bayleton, 25% n.k. (0,06 -0,12 kg/ga);
- Bordo suyuqligi (30,0-60,0 kg/ga - mis kukuni bo‘yicha);
- Mis kuperosi, 98% n.k. (15,0-20,0 kg/ga);
- Temir kuperosi 53% n.k. (30,0-40,0 kg/ga).

Izoh: em.k.- emulsiya konsentrati; s.k. - suspenziya konsentrati; n.k. - namlanuvchi kukun.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyev I., Xasanov Sh.S. O‘simliklar kasalliklari va ularga qarshi kurash. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. FAO (Food and Agriculture Organization). Plant Protection Manual. – Rome: FAO Publishing, 2017.
3. Karimov B.K. Mevali bog‘larda kasalliklar va ularni himoyalash. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Mevali daraxtlar kasalliklariga qarshi qo‘llaniladigan himoya vositalari. – Toshkent, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi ilmiytadqiqot instituti materiallari. – Toshkent, 2022.
6. Temirov T. Bog‘dorchilik va uzumchilikda kasalliklar bilan kurash. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
7. Xodjiev A.A. Fitopatologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
8. www.agro.uz – O‘zbekiston agroportali.
9. www.agroforum.uz – Qishloq xo‘jaligiga oid ma’lumotlar sayti. (2023-yil ma’lumotlari asosida)
10. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work

with Pairing in the Autocad Software." International Journal on Orange Technologies 3.12 (2021): 211-216.

11. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 11. 2022.

12. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.4 (2022): 70-81.

13. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.3 (2022): 288-296.

14. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

15. "UMUM TA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHNING HOZIR HOLATI." Oriental Art and Culture, Vol. 5, No. 6, 2024, pp. 65–69.